



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

***Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-may***



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 65-223-75-63***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 22 626 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 67 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22 551 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 7 064,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 107,2 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 634,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 128,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 429,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 887,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,0 %) tashkil etdi.


	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	7 064,2	107,2
Buxoro shahri	2 957,6	108,2
Kogon shahri	196,6	102,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot		
Buxoro	198,2	105,6
Vobkent	443,0	104,2
G'ijduvon	200,6	104,4
Kogon	1 061,6	111,9
Qorako'l	145,2	102,7
Qorovulbozor	520,8	101,8
Peshku	135,9	106,9
Romitan	209,9	108,0
Jondor	376,9	107,0
Shofirkon	329,6	105,8

2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning yanvar-may oylarga nisbatan viloyatining Kogon tumani (111,9 %) Buxoro shahri (108,2 %), va Romitan(108,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-may)**



2020- y.




2021- y.



2022- y.




2023- y.



2024- y.

So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil qildi.

**2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)**



2024- yilning yanvar-may oylarida o'sish sur'ati **108,1** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 41,9 % bilan 2 957,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 1,8 % bilan 135,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-may oylarida statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 6429,4 so‘mni tashkil etib, 2023–yilning yanvar-may oylariga nisbatan 5,9 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,0 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 28,8 % ga ko‘paydi va 634,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,0 % ulushiga to‘g‘ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,3 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (13,7 %), Peshku (34,9 %) va Kogon (57,6 %) tumanlarida kuzatildi.

9,4 %


90,6 %



Yirik korxonalar


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

2024- yilning yanvar-may oylar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 450,0 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 105,8 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (10 015,7 ming. so'm), Qorovulbozor (6 827,7 ming. so'm) va G'ijduvon (3 286,6 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-may), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	431,7	119,0
Buxoro shahri	125,0	120,3
Kogon shahri	5,0	78,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	12,8	142,1
Buxoro	13,0	116,6
Vobkent	46,9	113,6
G'ijduvon	101,8	145,5
Kogon	2,2	114,3
Qorako'l	77,7	92,8
Qorovulbozor	3,4	118,8
Peshku	11,9	128,4
Romitan	12,0	115,5
Jondor	11,1	204,6
Shofirkon	8,8	117,2

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-may)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm












(2024- yil yanvar-may)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 887,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 431,7 mlrd. so'mni (119,0 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 455,7 mlrd so'mni tashkil etdi (111,5 %).













2024-yilning yanvar-may oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 107,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (152,9 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>152,9 mlrd. so'm</p>  <p>47,2 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>48,7 mlrd. so'm</p>  <p>15,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va)</p> <p>17,1 mlrd. so'm</p>  <p>5,3 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>14,9 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>15,7 mlrd.</p>  <p>4,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>8,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>9,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>2,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>6,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,0 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>41,9 mlrd. so'm</p> <p>13,0 %</p>

2024- yilning yanvar-may oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 96,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 83,3 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 12,3 mlrd. so'mni, otlar – 1,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>52,8 mlrd. so'm</p>  <p>56,9 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>12,9 mlrd. so'm</p>  <p>19,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>17,6 mlrd. so'm</p>  <p>12,9 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>9,1 mlrd. so'm</p>  <p>10,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>3,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	298,0	106,7
Buxoro shahri	183,0	105,2
Kogon shahri	5,0	103,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	4,1	107,4
Buxoro	12,2	120,5
Vobkent	18,8	104,3
G'ijduvon	15,9	106,1
Kogon	5,4	106,7
Qorako'l	8,1	105,8
Qorovulbozor	7,3	138,4
Peshku	4,6	124,4
Romitan	20,9	106,0
Jondor	6,7	105,4
Shofirkon	6,2	105,8

2024- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 298,0 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	5856,5	100,0
Buxoro shahri	2395,5	41,0
Kogon shahri	43,3	0,7
<i>tumanlar:</i>		
Olot	25,4	0,4
Buxoro	112,3	1,9
Vobkent	1094,9	18,7
G'ijduvon	423,4	7,2
Kogon	401,2	6,9
Qorako'l	56,3	1,0
Qorovulbozor	28,1	0,5
Peshku	356,1	6,1
Romitan	377,0	6,4
Jondor	513,9	8,8
Shofirkon	29,0	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (2395,5 mlrd. so'm), Vobkent (1094,9 mlrd. so'm) va Jondor (513,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-may oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 548,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,3 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1086,1 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 108,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 462,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 158,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 732,7mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 060,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 70,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega eng yirik korxonalar Qorako‘l (2.1 m.) va Vobkent tumanlarida (155,9 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	5732,7	109,0
Buxoro shahri	2340,0	90,1
Kogon shahri	43,1	43,7
<i>tumanlar:</i>		
Olot	25,4	135,7
Buxoro	105,6	137,6
Vobkent	1055,6	159,0
G‘ijduvon	415,3	105,5
Kogon	400,5	109,3
Qorako‘l	55,7	148,3
Qorovulbozor	28,1	137,2
Peshku	353,9	107,2
Romitan	374,9	137,7
Jondor	513,9	137,8
Shofirkon	20,7	137,1